# O`zbek adabiyoti fani

**Mavzu:** HAMID OLIMJON IJODIDA XALQ OG‘ZAKI IJODINING O‘RNI. SHOIR LIRIKASIDA TABIAT TASVIRI. MAQSUD SHAYXZODANING 30-YILLAR SHE’RIYATI. TRAGEDIYADA ZOHIRIY VA BOTINIY KONFLIKT. DRAMATIK ASARLARIDA TARIXIY SHAXSLAR TALQINI. URUSH YILLARIGA XOS JANGOVOR LIRIKA.

Omanova Mubora Abdurazakovna

# REJA:

- Hamid Olimjon ijodida xalq og‘zaki ijodining o‘rni.
- Shoir lirikasida tabiat tasviri.
- Maqsud Shayxzoda ijodiy faoliyati.
- Tragediyada zohiriy va botiniy konflikt. Dramatik asarlarida tarixiy shaxslar talqini

# Darsning shiori:

ADABIYOT ATOMDAN KUCHLI, UNING KUCHINI O`TIN YORISHGA SARFLAMASLIK KERAK.

ABDULLA QAHHOR





# ADABIYOTLAR:


1. Olimjon H. Tanlangan asarlar (3 tomlik).-T.: "Badiiy adabiyot", 1-2-tomlar, 1957-58.
2. Olimjon H. Asarlar (5 tomlik).-T.: "Adabiyot va san`at", 1-2-tomlar. 1970-71.
3. Olimjon H. Mukammal asarlar to`plami (10 tomlik).-T.: "Fan", 1-2-tomlar, 1979.
4. Azimov S. Hamid Olimjon abadiyati.-T.: "Badiiy adabiyot", 1967.
5. Yoqubov H. Hamid Olimjon. // O`zbek adabiyoti tarixi (3 tomlik).-T.: "Fan", 2-tom, 1971.
6. Karimov N. Hamid Olimjonning poetik mahorati.-T.: "Fan", 1964.
7. Karimov N. Hamid Olimjon (shoir hayoti va ijodidan lavhalar). -T.: "Yosh gvardiya",1979.
8. Yoqubov H. Oybek lirikasida obrazlar sistemasi va lirik xarakter. //H.Yoqubov. Adabiy maqolalar.-T.: "Adabiyot va san`at", 1970.
9. Imomov B. Hamid Olimjon-dramaturg. // Nafosat chashmasi.-T.: "Fan", 1970.
10. Qurbonov D. Hamid Olimjonni bilasizmi? // "Sharq yulduzi", 2002, 2-son.
11. Qosimov S. Hamid Olimjon adabiy tanqidchi sifatida. // Nafosat chashmas.-T.: "Fan", 1970

# Hamkorlik tenglamasi

| | | |
|---|---|---|
| **1909-yil 12-dekabr** | **X** | **Hamid Olimjon tug`ilgan** |
| Ularning qo`llarida tarbiyalangan | Azim bobo | X |
| X | "Kimdir" nomli | 1926- yil |
| Hamid Olimjon 1929-yil talabalik davrida | X | Ilk she'riy to`plami |
| Birinchi marta nashrga tayyorlagan | Xalq dostoni | X |
| X | Tarixiy | dramasi |
| 1935-yil | X | Turmush qurishgan |
| 33 yoshida | X | Unvonini olgan |
| X | Avtomobil halokati | Vafot etgan |

# Hayot yo’li:

- 1909-yil 12-dekabrda Jizzax shahrida tug’ildi.
- Onasi - Komila aya.
- 4 yoshdan so’ng Azimbobo qo’lida tarbiyalanadi.
- Jizzaxdagi Narimonov nomli o’rta maktabni tugatib, Samarqanddagi o’zbek bilim yurtida o’qidi.
- 1928-yil Oliy Pedagogika institutining iqtisod fakultetida o’qiy boshladi.
- 1944-yil 3-iyulda vafot etdi.

*“Men bir qaro kunda tug’ildim,*
*Tug’ildimu, shu on bo’g’ildim”*

voqea 1916-yilgi Jizzax qo’zg’olonining shafqatsiz bostirilishi edi.

- Talabalik davridanoq, ilk she'riy to'plami "Ko'klam" va hikoyalar to'plami "Tong shabadasi" e'lon qilindi.
- Shoirning "*Olov sochlar*"(1931), "*Poyga*", "*O'lim yovga*"(1932), "'*Daryo kechasi*" (1936), "*She'rlar*"(1937), "*O'lka*", "*Oygul bilan Baxtiyor*"(1939) va "*Baxt*" she'riy to'plamlari, tarjimalari ketma-ket e'lon qilindi.
- 1939-yil O'zbekiston yozuvchilar uyushmasiga mas'ul kotib bo'ldi.

# Ilk she’ri



**Hamid Olimjon ilk she’rining nomi**



**“KIMDIR”**

1926-yil yozilgan

# BIRINCHI TO‘PLAMI

- «Ko‘klam» nomli birinchi she’rlar to‘plami **1929-yilda** o‘z o‘quvchilarini topdi.



# ASARLARI






# She'riy to`plamlari

- 1931-yil – “Olov sochlar”
- 1932-yil – “Poyga”
- 1937-yil – “She’rlar”
- 1940-yil – “Baxt”
- 1936-yil – “Daryo kechasi”
- 1939-yil – “O`lka” va boshqalar.

1932-yil ko'klamda shoirning Farg'onaga safari "Baxtlar vodiysi" balladasini yaratilishiga sabab bo'ldi.

Barcha yaproqlari
birday ko'kargan.
Novdalari jonli
bu noyob bahor.
Qarashlari nurga to'lgan
bu ulug' vodiy
ko'm-ko'k!..

Hamid Olimjonning lirik qahramoni ona tuprog'ini ardoqlaydi, shu beshikda ulg'aygani bilan iftixor qiladi:

*Men dunyoga kelgan kundanoq*
*Vatanim deb seni, uyg'ondim.*
*Odam baxti birgina senda*
*Bo`luriga mukammal qondim.*

"O`lka" she`ridan olingan mana bu to`rtlikda ham Vatan haqidagi tuyg'ular samimiy.

*Qulog'imga noming kirganda*
*Qumlik kabi tashna boqurman.*
*Sening jannat vodiylaringdan*
*Nahrlarday to`lib oqurman.*

# Suratlarga yashirin sirlar









# A.Nazarov “O’rik gullaganda”



# SHOIR IJOD BILAN BAND

- **“Oygul bilan Baxtiyor”(1937) negizida “Malikai Husnobod” ertagi, ammo, dostonda 1917-yil inqilobining majoziy – ertaknamo tasviridir.**



# “OYGUL BILAN BAXTIYOR”

# ERTAK-DOSTONI

# Eslab qoling!



Ushbu ertak-doston 1937-yil 16-26-noyabr kunlari yozilgan!

# Doston qisqa satrlarda

- Juda qadim zamonda, Jambil degan yurtda nihoyatda og‘ir ahvolga tushgan xalq o‘zini qul qilgan xon zulmiga qarshi bosh ko‘taradi.
- Qo`zg`olonga keksa qul Darxon va uning mardona qizi Oygul boshchilik qilardi.
- Qo`zg`olon bostirilib, Darxon qatl etiladi. Oygul asir olinadi.

- Tarlon ismli keksa qul zindonda yotgan Oygulni qutqaradi. Qizni sandiqqa solib daryoga oqizib yuboradi. Daryoda uch oy oqqan sandiq Jurjon degan yurtga kelib qoladi.




- **Ikki zolim xondan zo`rg`a qutilgan Oygul baxti Baxtiyor bilan ko`rishadi.**



# Jayhun baliq ichidagi gavhar



# Jasur Oygul eri Baxtiyor bilan birga o`z yurtini zolim xondan ozod qiladilar



# *Mustahkamlash*



# Davom ettiring



- 1. **Oygulni zindondan ozod qilgan qul ________________**
- **2. Qullar isyoniga boshchilik qilganlar ________________**
- **3. Qullar isyon qilgan yurt nomi _______________________**
- **4. Daryodan sandiqni tutib oldi________________________**
- **5. Oygul baliq qornida yotganida topgan edi__________**
- **6. Oygulni baliq qornidan chiqardilar_________________**
- **7. Baxtiyor tug`ilgan yurt______________________________**
- **8. Oygulni yutib yuborgan baliqning nomi____________**
- **9. Oygul Jurjon shohiga tegmaslik uchun o`zini_______**
- **10. Tarlon sandiqqa Oygul uchun yetadigan___________**

# Ortiqchasini ayting



| | | |
|---|---|---|
| Jambil | Oygul | Shamshir |
| Susambil | Qoraxon | Sandiq |
| Zangar | Baxtiyor | Gavhar |
| Jurjon | Darxon | Baliq |

# Solishtiring:





Jambil degan tomonda,
Juda qadim zamonda
Qullar isyon qildilar.
Jangga kirib qo`shinlar,
Urushib oy-u kunlar
Olamni qon qildilar.



# Solishtiring:

Tinchlik  tugab  och elda,
Mamlakat qoldi selda.
Dahshat ichra  yonib xon
Har tomon qildi farmon.
To`xtamay bo`ron qoqdi,
Maydonlarga o`t yoqdi.

# Solishtiring:

O`z holiga qilib or,
Tikib qator-qator dor,
Ko`zlariga to`lib qon,
Zambaraklar bo`shatdi,
Tani zaharga botdi.
Jambil eli ko`p zamon
Qo`zg`alon bo`lib yotdi.

# “Oygul bilan Baxtiyor”





**Shijoat**

**Matonat**

Sadoqat

effects1.ru

# *Savol va topshiriqlar*



- 1. Xalqimizda «Uzukka ko‘z qo‘ygandek» degan ibora bor. Shu iborani Oygul bilan Baxtiyorga nisbatan ishlatsa bo‘ladimi?
- 2. Oygul zolim podshoh qo‘lidan qutulish uchun o‘zini tashlagan daryo qaysi daryo bo‘lishi mumkin?
- 3. Baliq qornidan tirik chiqqan Oygulning o‘zi Baxtiyorning otasiga unga kelin bo‘lmoq niyatida ekanini aytadi. Shu holatni qanday izohlaysiz?
- 4. Asarning qaysi qahramoni o‘z ozodligi, baxt-u saodati yo‘lida ko‘proq harakat qiladi? Buning sababi nimada, deb o‘ylaysiz?

- Hamid Olimjon ham zamonaviy, ham tarixiy mavzularda birdek samarali ijod qilardi. Uning «Muqanna» nomli tarixiy, «Jinoyat» deb nomlangan zamonaviy mavzudagi she’riy dramalari bor.

Hamid Olimjonning o`lmas asarlari o`zining badiiy qimmatini aslo yo`qotmaydi.



# MAQSUD SHAYXZODA

(1908-1967)





- Maqsud Shayzoda **1908-yili** Ozarbayjonning Agdash (Oqtosh) shahrida ziyoli oilada tug‘ilgan.



- Otasining kasbi **shifokorlik** bo‘lib, she’riyatni nihoyatda sevgan, farzandlariga ham adabiyotga muhabbat tuyg‘usini singdirgan inson edi.

- ***1928-yili u hurfikrliligi, ya'ni Ozarbayjonni mustaqil davlatga aylantirish haqidagi erkin fikrlari uchun ayblanib, Toshkentga badarg'a qilinadi.***

- Ayni shu davrdan boshlab to umrining so‘ngiga qadar Shayxzodaning butun hayoti **O‘zbekiston** bilan bog‘lanadi.



- Ijodkor avval turli gazeta va jurnallar tahririyatlarida muharrir, 1935-1938-yillarda O‘zbekiston Fanlar komiteti qoshidagi Til va adabiyot institutida ilmiy xodim, 1938-yildan hayoti so‘ngigacha (umrining oxirigacha) Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika instituti o‘zbek mumtoz adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi bo‘lib ishladi.

- Shayxzodaning dastlabki ijod namunalari 1929-yildan e’lon qilina boshlandi. 30-yillarda shoirning «O‘n she’r», «Undoshlarim», «Uchinchi kitob», «Jumhuriyat» nomli to‘plamlari dunyo yuzini ko‘radi.

**Ilk ijod**



Butun insoniyatga tahdid solayotgan fashizmni yo‘q qilish, hayotni, tiriklikni, shon-u sharafni (tinchlikni) saqlash, xalqni ruhan yengilmaslikka, matonatga da’vat etgan asarlari:

- «Kurash nechun»;
- «Jang va qo‘shiq»;
- «Kapitan Gastello»;
- «Ko‘ngil deydiki» kabi to‘plamlar.

- «Jaloliddin Manguberdi» dramasi

- «Mirzo Ulug‘bek» dramasi

Mashhur dramasi





Ana shu 2 dramadagi bosh qahramonlar: **Jaloliddin Manguberdi** va **Mirzo Ulug`bek** rollarini O`zbekiston xalq artisti **Shukur Burxonov** ijro etgan!

# «Toshkentnoma» dostoni

- Qadim poytaxtimiz Toshkent haqida teran falsafiy va nihoyatda ehtirosli tuyg‘ularga boy asar.

- Shoir **1967-yilning 19-fevralida** xastalikdan vafot etadi. Uning vafotidan so'ng **6** jildlik «Asarlar»i nashr etiladi. Mustaqillik yillarida marhum Maqsud Shayxzoda ijodi va qilgan xizmatlari haqiqiy qadr topib, **2001-yili «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni** bilan taqdirlandi.



# MIRTEMIR VA MAQSUD SHAYXZODA




Ijodkor haqida xotiralar to`plami



# “ISKANDAR ZULQARNAYN”

# *ERTAK-DOSTONI*





# ISKANDAR ZULQARNAYN  KIM?

- **Aleksandr Makedoniya poytaxti Pelleda mil. avv. 356-yilda tug’ildi.**
- **Otasi Makedoniya shohi Filipp II.**
- **Onasi Olimpiada – Molos shohi Iprning qizi.**

Aleksandrning yoshlik yillari haqida juda kam ma’lumot saqlanib qolgan. Antik manbalarda qayd qilinishicha, u bolaligida tengdoshlari orasida o’zining alohida qobiliyati bilan ajralib turardi. Aqlli, jasur, mag’rur va izzattalab bo’lgan. 16 yoshida Aleksandr janglarda qatnashib harbiy qobiliyati va jasorati bilan hammani lol qoldirgan.

# MUSTAHKAMLASH

***Zehningizni sinang! Asarlarni davrlar bo`yicha ajrating.***

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1 "Ko'ngil deydiki" | "Olqishlarim" 2 | 4 "Uchinchi kitob" | "Chorak asr devoni" 12 |
| 8 "Kurash nechun" | "Shu'la" 10 | 11 "Kapitan Kastello" | "Undoshlarim" 5 |
| 7 "Zamon torlari" | "Jumhuriyat" 9 | 6 "O'n besh yilning daftari" | "O'n she'r" 3 |

# E’TIBORINGIZDAN XURSANDMIZ!

